Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 373.2

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

FARG‘ONA VILOYATI MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI MODDIY-TEXNIK BAZASI VA SANITARIYA-GIGIYENA HOLATI (XX ASRNING 70 – 90 YILLARI)

Odinaxon Akmaljon qizi Xolmirzayeva*

FDU mustaqil izlanuvchisi

✉ botirovaodina974@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning 70–90-yillarida Farg‘ona viloyati maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va sanitariya-gigiyena holati arxiv hujjatlari hamda og‘zaki tarix materiallari asosida tahlil qilinadi. Muassasalarning loyiha quvvatidan ortiq bolalarni qabul qilishi, muhandislik ta’minoti va jihozlaridagi kamchiliklar, dezinfeksiya hamda shaxsiy gigiyena talablariga rioya etilishi, tibbiy xizmat va sanitariya infratuzilmasi masalalari yoritiladi. Shahar, davlat va kolxoz tasarrufidagi bog‘chalar faoliyatidagi sharoitlar qiyoslanib, moddiy ta’minot shakli bolalar uchun yaratilgan sharoitlarga ta’sir ko‘rsatgani asoslanadi.

Kalit so‘zlar

Farg‘ona viloyati, maktabgacha ta’lim, bolalar bog‘chasi, moddiy-texnik baza, sanitariya-gigiyena, bolalar salomatligi, sovet davri, arxiv hujjatlari, og‘zaki tarix.

DOI: 10.5281/zenodo.23863309

KIRISH

XX asrning 70 – 90 yillari Farg‘ona viloyatida maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘i faoliyatini o‘rganishda ularning moddiy-texnik bazasi va sanitariya-gigiyena holati muhim tarixiy masalalardan biridir. Muassasalarning bolalarni qabul qilish imkoniyati, bino-inshootlarining holati, muhandislik ta’minoti, jihozlar, tibbiy xizmat va kundalik gigiyena tartiblari bolalar uchun yaratilgan sharoitlarni belgilagan. Mazkur maqolada arxiv hujjatlari hamda og‘zaki tarix materiallari asosida Farg‘ona viloyatidagi ayrim maktabgacha ta’lim muassasalarining amaliy holati tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarixini o‘rganishda muallifning avvalgi tadqiqotida keltirilgan ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlar muhim manbaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. M. Badalovaning “O‘zbek SSRda maktabgacha ta’limning rivojlanish tarixidan (1946–1965)” nomli tadqiqoti respublikada maktabgacha ta’lim tizimining urushdan keyingi shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini yoritadi [1]. I. To‘xtaxo‘jayeva tomonidan tayyorlangan “Bolalar bog‘chalarida bolalarni yangi dastur asosida tarbiyalash” asari maktabgacha ta’limning pedagogik mazmuni va tarbiyaviy faoliyatini anglashga yordam beradi [2]. “Maktabgacha ta’lim bo‘yicha qo‘llanma”da muassasalar faoliyatini tashkil etish, kundalik ish tartibi va bolalarni parvarishlashga oid me’yoriy-uslubiy qarashlar jamlangan [3]. I. Tishaboyevaning “O‘zbekistonda mavsumiy bolalar bog‘chalari va ularn-

ing faoliyati (1945 – 1970)” maqolasi qishloq joylarida mavsumiy muassasalar tashkil etilishi hamda ularning faoliyat xususiyatlarini o‘rganish uchun bevosita ahamiyatga ega [4]. N. Toshevaning “Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish” asari esa maktabgacha ta’lim jarayonining tashkiliy-pedagogik jihatlarini yoritadi [5]. Ushbu adabiyotlar maktabgacha ta’lim muassasalarining shakllanishi, turlari va faoliyatini umumiy tarixiy-pedagogik kontekstda ko‘rib chiqishga imkon beradi. Biroq Farg‘ona viloyatidagi 1970 – 1990-yillardagi moddiy-texnik ta’minot, sanitariya-gigiyena sharoitlari, muassasalarning loyiha quvvatidan ortiq to‘ldirilishi va qishloq bog‘chalaridagi tibbiy xizmat muammolari mazkur ishlarning asosiy tadqiqot predmeti sifatida alohida tahlil qilinmagan. Shu sababli ushbu maqolada ilmiy adabiyotlar arxiv hujjatlari va og‘zaki tarix materiallari bilan qiyosiy ravishda tahlil qilinadi.

Tadqiqotning asosiy materiallarini Farg‘ona viloyati davlat arxivining 1147-fond, 1-ro‘yxat, 1501-ish, 11-varaq; 833-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 5-varaq; 3263-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 12-varaqdagi hujjatlar, shuningdek, 2022-yil 25-dekabr va 2026-yil 22-sentabrda qayd etilgan intervyu ma’lumotlari tashkil etadi. Tadqiqotda tarixiy-tavsifiy, muammoviy-xronologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Hujjatlarda qayd etilgan ma’lumotlar muassasalarning moddiy-texnik sharoiti, sanitariya tartiblari va tibbiy xizmat ko‘rsatish holatlari bo‘yicha guruhlandi. Og‘zaki tarix ma’lumotlari arxiv hujjatlarini to‘ldiruvchi manba sifatida ko‘rib chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1970-yillardagi arxiv hujjatlarida Farg‘ona To‘qimachilik Kombinati tasarrufidagi 5-sonli va 1-sonli bolalar bog‘chalari, 5-sonli bolalar bog‘chasi (bolalar yasli-bog‘chasi) sanitariya-gigiyena sharoitlari talabga javob bermasligi aytilgan. Tekshiruv materiallari shuni ko‘rsatadiki, bu kamchiliklar faqat muassasalar sanitariya sharoitlari bilan cheklanib qolmay, balki muassasalar loyihaviy quvvati, to‘g‘ri muhandislik tuzilmasi ta’minoti, jihozlar, dezinfeksiya ishlari, bolalarning shaxsiy gigiyenasi va ovqatlanishini tashkil etishga ham aloqador edi.

Jumladan, mudira R.K. Gorkina rahbarligidagi 5-sonli bolalar bog‘chasi eski loyiha asosida 100 o‘ringa mo‘ljallab qurilgan bo‘lsa-da, amalda unda 135 nafar bola tarbiyalangan. Ikki qavatli bino 1954-yildan buyon muassasa foydalanishida bo‘lgan. Shunday qilib, muassasadagi bolalar soni loyiha sig‘imidan 35 nafarga, ya’ni 35 foizga ortiq bo‘lgan. Mazkur holat guruh xonalari, yotoq joylari va sanitar-gigiyenik infratuzilmaga qo‘shimcha yuklama tushirgan.

Muassasaning qurilish tuzilmasida ham qator kamchiliklar mavjud bo‘lgan. Isitish tizimi pech-gaz usulida tashkil etilgan, guruhlarga issiq suv tortilmagan. Issiq suv quvurlari o‘rniga har bir guruhning ichki hojatxonasiga gazli suv isitgichlari o‘rnatilgan bo‘lib, bu sanitariya xonasida jipslik, noqulay va bolalar salomatligi uchun xavfli muhitni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Mazkur xonaning o‘zida bolalarni yuvintirish uchun bittagina jo‘mrak mavjud bo‘lgan. Hojatxonaga olib boruvchi yo‘lakdan bir vaqtning o‘zida oshxona idishlarini saqlash va bolalar sochiqlarini osib qo‘yish uchun foydalanilgan. Bunday holat muassasa binosining joylashuv tuzilishi mavjud ehtiyoj va sanitariya me’yorlariga yetarli darajada moslashmaganini ko‘rsatadi.

Bolalarning kundalik faoliyati uchun mo‘ljallangan jihozlarning holati ham qoniqarli bo‘lmagan. Guruhlardagi javonlar, stol va stulchalar bolalarning bo‘yi hamda yoshiga mos kelmagan. Uch smenada ham bitta choyshabdan foydalanilgan, idish-tovoqlar yetishmagan. Bolalar kiyimlari uchun har ikki bolaga bittadan javon to‘g‘ri kelgan, krovatlar esa ikki qator qilib juda jips joylashtirilgan. Muassasa binosining umumiy ta’mirga muhtojligi ham qayd etilgan.

Sanitariya va dezinfeksiya tartiblariga rioya etishda ham bir xil holat kuzatilmagan. Idishlar va hojatxonalarga dezinfeksion ishlov berishga qisman rioya qilingan bo‘lsa-da, o‘yinchoqlarga foydalanilgandan so‘ng har kuni muntazam ishlov berilishi lozim bo‘lgan holda, haqiqatda ular haftasiga atiga bir marotaba tozalangan.

Tarbiyalanuvchilarning shaxsiy gigiyenaga rioya qilishi ustidan nazorat ham talab darajasida bo‘lmagan. Og‘izni chayish uchun idishlar yetishmagan, bir idishdan ikki yoki uch bola navbatdan foydalangan, aksar hollarda idishlar mutlaqo ishlatilmagan. Ayrim bolalarning tirnoqlari uzun va sochlari taralmagan holatda ekani qayd etilgan. Ovqatlanish vaqtida bolalarning stol atrofida juda jips o‘tirishi va stollarda yetarlicha sochiqlarning mavjud emasligi ham sanitariya-gigiyena holatidagi kamchiliklarning kundalik me’yoriga bevosita ta’sir qilganini ko‘rsatadi.

XX asrning 80-90 yillarida ham kolxozlar tasarrufidagi maktabgacha ta’lim muassasalarida tibbiy xizmat ko‘rsatish past darajada bo‘lib, alohida tibbiyot xodimi ajratilmagan. Bolalar umumiy tarzda qishloq vrachlik punktlarida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan. Ayni paytda Markaziy hududlardagi yoki davlat tasarrufidagi bog‘chalarda bolalarni erta tongdan qabul qilish jarayonida tana haroratlarini o‘lchab, so‘ngra qabul qilingan. Agarda biror-bir bolaning tana harorati yuqori bo‘lsa, darhol muassasa shifokori qabuliga olib borilgan.

Ayrim shaharlar va chekka hududlardagi tumanlar tasarrufidagi doimiy maktabgacha ta’lim muassasalarida XX asrning 80 – 90 yillarda ham, aksariyat hollarda hojatxonalar yetishmagan. Masalan, Toshkent ilmiy tadqiqot institutining Qo‘qon tayanch punkti qoshida (Bog‘dod tumanida) ochilgan 37-sonli “Nihol” bolalar bog‘chasida atigi ikkitagina bir xonali ko‘chma hojatxona, Leningrad tumanida joylashgan “Hamza” sovxoziga qarashli maktabgacha tarbiya muassasasida bittagina bir xonali hojatxona mavjud bo‘lib, hojatxonaga borish yo‘lagi ushbu vazifani o‘tagan. Natijada, bog‘cha hovlisida issiq kunlarda noxush hid, turli hasharotlardan va ular sabab tarqaladigan turli yuqumli kasalliklardan muassasa xodimlari ham bolalar ham aziyat chekkan. Qolaversa, mazkur tumanning Ultarma qishlog‘ida tashkil etilgan kolxoz doimiy bog‘chasi uchun ajratilgan joy juda kichik va noqulay bo‘lib, umuman hojatxona uchun o‘rin ajratilmagan. Kun davomida bolalar peshobi va najasi bog‘cha hovlisining quyi qismidagi devor yaqinida qazilgan chuqurga tashlangan va kun yakunida usti tuproq bilan berkitib qo‘yilgan. Buning natijasida ushbu davrda infeksion kasalliklar bolalar orasida keng tarqalgan. Muassasa xodimlari uchun esa mutlaqo sharoit mavjud bo‘lmay, gigiyena xonasi sifatida muassasa yaqinidagi xonadonlar hojatxonalaridan foydalanishgan.

Keltirilgan dalillar maktabgacha ta’lim muassasalaridagi sanitariya-gigiyena muammolari alohida kamchiliklar yig‘indisidan iborat bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Loyiha quvvatidan ortiq bolalarni qabul qilish, issiq suv va sanitariya xonalarining yetishmasligi, jihozlarning yosh xususiyatlariga mos kelmasligi hamda dezinfeksiya ishlarining muntazam bajarilmasligi o‘zaro bog‘liq muammolar edi. Shahar va davlat tasarrufidagi ayrim bog‘chalarda bolalarni qabul qilishda harorat nazorati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, kolxoz muassasalarida tibbiy xodimning alohida ajratilmagani tibbiy xizmat imkoniyatlaridagi tafovutni ko‘rsatadi. Hojatxonalar bilan bog‘liq misollar esa moddiy-texnik ta’minotdagi kamchiliklar kundalik gigiyena va sanitariya xavfsizligiga bevosita ta’sir qilganini ochib beradi. Shu bilan birga, keltirilgan holatlar ayrim muassasalar va hududlarga oid bo‘lib, ularni butun viloyatdagi barcha bog‘chalarga umumlashtirish uchun qo‘shimcha manbalar talab etiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, maktabgacha ta’lim muassasalarining yuqorida keltirilgan turlari, ya’ni kolxozlarning doimiy maktabgacha ta’lim muassasalari, mavsumiy maktabgacha ta’lim muassasalari, davlat byudjet tashkilotlari hamda turli vazirliklarga qarashli doimiy maktabgacha ta’lim muassasalarining ish tartibi, ish vaqti (mavsumiy bog‘chalarda mavsumga ko‘ra), belgilangan me’yorlari, ta’lim-tarbiya jarayonlari, ovqatlanish ratsioni uchun belgilangan talablar bir xil bo‘lgan. Faqatgina farqli jihati kolxoz doimiy maktabgacha ta’lim muassasalari va mavsumiy muassasalar kolxoz byudjeti hisobidan ta’minlangan, qolgan ta’lim muassasalari davlat byudjeti, zavod yoki fabrika hisobidan faoliyat yuritgan. Masalaning ayni jihati ushbu bog‘chalar faoliyatidagi ta’lim-tarbiya, sanitariya-gigiyena, xavfsizlik, oziq-ovqat, yaratilgan shart-sharoit jihatidan jiddiy farqlanishga sabab bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Badalova M. O‘zbek SSRda maktabgacha ta’limning rivojlanish tarixidan (1946–1965). Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 1974. – 68 b.
2. To‘xtaxo‘jayeva I. Bolalar bog‘chalarida bolalarni yangi dastur asosida tarbiyalash. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – 167 b.
3. Maktabgacha ta’lim bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent, 1974. – 521 b.
4. Tishaboyeva, I. O‘zbekistonda mavsumiy bolalar bog‘chalari va ularning faoliyati (1945–1970). // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – 2021. – № 1.3.1. – B. 22–24.
5. Tosheva, N. Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish. – Buxoro: Kamolot, 2022.
6. FVDA, 1147-fond, 1-ro‘yxat, 1501-ish, 11-varaq.
7. FVDA, 833-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 5-varaq.

8. Botirova Shoiraxon opa Abduqodirovna bilan intervyu, 2022-yil 25-dekabr.
9. FVDA, 3263-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 12-varaq.
10. Astanaqulova Mavludaxon aya Ro‘ziboyevna bilan intervyu, 2026-yil 22-sentabr.